

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/28.02.2022.I.18.01-RAQAMLI ILMIY KEGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

JABBOROVA ZUHRA ABDIG‘ANI QIZI

**TURIZM SOHASINI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASHNING
TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati (iqtisodiyot fanlari)

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiya
AVTOREFERATI**

Samarqand-2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on economical
sciences**

Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi

Turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy
mexanizmlarini takomillashtirish.....3

Жабборова Зухра Абдигани кизи

Совершенствование организационно-экономических механизмов государственной
поддержки туристической отрасли

Jabborova Zukhra

Improvement of organizational and economic mechanisms of state support of the tourism
industry.....

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных вакансий

List of published works30

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/28.02.2022.I.18.01-RAQAMLI ILMIY KEGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

JABBOROVA ZUHRA ABDIG‘ANI QIZI

**TURIZM SOHASINI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASHNING
TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati (iqtisodiyot fanlari)

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiya
AVTOREFERATI**

Samarqand-2024

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) mavzusi Oliy attestasiya komissiyasida raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertasiya ishi Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb sahifasi (www.sies.uz) va «Ziyonet» Axborot-talim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ergashev Raxmatulla Xidirovich,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponetlar:

Yetakchi tashkilot:

Dissertasiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis institutining ilmiy darajalar beruvchi PhD. raqamli ilmiy kengashining ____ yil «__» _____ kuni soat ____ dagi majlisi bo'lib o'tdi. Manzil:140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel: (99866) 233 19 84; faks: (99866) 231 12 53; e-mail: sies_info@edu.uz

Dissertatsiya bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil:140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel: (99866) 233 19 84; faks: (99866) 231 12 53; e-mail: sies_info@edu.uz

Dissertasiya avtoreferati ____ yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(____ yil «__» _____ dagi № ____ raqamli reysr bayonnomasi).

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy
kengash raisi, i.f.d professor

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, i.f.d dotsent

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
Kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, i.f.d professor

KIRISH. (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda turizm sohasi iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli sohalaridan biri hisoblanmoqda. Butunjahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) hisob-kitoblariga ko'ra, 2024 yilda turizm sanoatning global iqtisodiyotga qo'shgan hissasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,1 foizga oshib, 11,1 trillion dollarni tashkil etadi va bu global YaIMning 10 foizini tashkil qiladi. Bu 2019-yilda o'rnatilgan avvalgi rekorddan qariyb 7,5 foizga ko'pdur¹. Globallashtirish jarayonlari insonlarning dunyo bo'ylab erkin harakatlanishiga keng imkoniyat eshigini ochib bermoqda. Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga muvofiq, 2022-yilda dunyoda 900 milliondan ortiq xalqaro turistik sayohatlari qayd etilgan bo'lib, ular orasida yoshlar ulushi 33 foizni tashkil yetadi². Shu nuqtai nazardan turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash muhim o'ringa ega ekanligini tasdiqlaydi va uni kelajakda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Global iqtisodiyotning muhim sektori sifatida turizm industriyasining jahon iqtisodiyotidagi o'rnini ham ortib bormoqda. Aynan turizm iqtisodiyotning yuqori daromadli sohasi bo'lib, jahon tovar va xizmatlar bozorini jadallashtirishga, aholi bandligini ta'minlashga, dunyoning turli mamlakatlari va mintaqalari o'rtasida yaqin aloqani rivojlantirishga yordam beradi. Xalqaro turistik tashkilot ma'lumotlariga ko'ra, turizm dunyo bo'yicha xizmatlar eksportining 30% ini ta'minlaydi. Shu jihatdan ham jahon miqyosida turizmni rivojlantirish, turizm xizmatlari hajmini oshirish va turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni mexanizmlarini takomillashtirgan holda xizmatlar sifatini oshirish, sohada iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish kabi masalalarga katta ahamiyat berilmoqda.

Yangi O'zbekistonda turizm sohasini sifat va miqdoriy jihatdan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda qisqa muddatdagi tanaffusdan so'ng turizm sohasida barqaror tiklanish tendensiyalari kuzatildi. Bugungi kunda yurtimizda turizm bo'yicha iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi va ko'magini shakllantirishning muhim shartlaridan biridir. Bu borada, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar amalga oshirilmoqda: investitsion faoliyatni rag'batlantirgan holda xavfsiz turizm xizmatlari ko'rsatishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, turizmدا innovatsion texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish, turizm industriyasini rivojlantirishning strategik modelini ishlab chiqish, davlat-xususiy sheriklik sharoitida mintaqalararo va jahon miqyosidagi loyihalarni yanada rivojlantirish. Ushbu strategik vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun xorijda sinalgan va turizm sohasida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqazo etadi.

¹ <https://www.wttc.org>

² <https://www.unwto.org/news/tourism-on-track-for-full-recovery-as-new-data-shows-strong-start-to-2023>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi PF-5326-son «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida», 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son «O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2022 yil 15 yanvardagi PF-52-son «Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish to'g'risida», 2023 yil 27 avgustdagi PQ-238-son «Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy, axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turizm sohasini rivojlantirishning ba'zi nazariy va amaliy jihatlari, turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning rivojlanishini tartibga solishning huquqiy, tashkiliy va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, turizm sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, turistik xizmatlar samaradorligini baholash usullari xorijiy olimlardan E.A.Medvedeva, M.A.Jukova, A.S.Devizov, E.K. Vorobey, Giulio Ambretti, Richard Batler³ hamda MDH davlatlari olimlaridan M.A.Morozov, I.V.Zorin, M.K. Babushkina, E.G.Salisheva, V.S.Bogolyubov, V.P.Orlovskaya, N.I.Kabushkin, V.A.Kvartalnov, L.Yu. Prozurin, Yu.N. Shedko⁴ va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan.

Ushbu muammolarni o'rganishda O'zbekistonlik olimlardan M.T.Alimova, X.M.Mamatqulov, K.B.Suyunova, V.F.Arhipova, K.X.Abduraxmonov, M.Q.Pardayev,

³ Медведева Е.А. Инновационная концепция туризма //К.д.н. дисс. Москва: 2002.-195 с.; Архипова В.Ф., Девизов А.С. Об инфраструктуре как определяющем факторе развития туризма в регионе. URL: <http://www.roman.by/r-78201.htm>; Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе: учебное пособие. – 2-е изд., стер. – М.: Конкурс, 2006. – 193 с., 14 - с.; Е.К. Воробей. Формирование системы государственной поддержки сферы рекреации и туризма в условиях новой реальности/ К.д.н. дисс. Сочи: 2021.-452 с.; /Julio Aramberri, Richard Butler “ Tourism development: Issues for aVulnerable Industry”, Arizona State University. USA 2004.293P.

⁴ Морозов М.А. Инфраструктурное обеспечение предпринимательской деятельности в туризме: монография. – М.: РосНОУ, 2005.; Зорин И.В. Менеджмент туризма: Туризм как вид деятельности. – М.; Издательство: Финансы и статистика, 2005. – 151с.; Бабашкина А.М. Государственное регулирование национальной экономики / А.М.Бабашкина. – М.: Финансы и статистика, 2007. – С. 12, Салишева Э.Г., Хабибрахманова А.Г., Салишев Р.Г. Совершенствование институциональных основ государственного регулирования внешнеторговой деятельности на региональном уровне / Э.Г. Салишева, А.Г. Хабибрахманова, Р.Г. Салишев. – Уфа: Вагант. – 2007. – С. 11, Боголюбов В.С., Орловская В.П. Экономика туризма. – М.; Издательский центр “Академия”, 2008. – 384 с; Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма. – Минск: Новое знание, 2002. – 407 с.; Квартальнов В.А. Туризм: учебник. – М.: Финансы и статистика, 2003. 320 с. Прокурин Л.Ю. Туризм как экономический приоритет [Tourism as an economic priority]. Moscow, New Century Publ., 2004. 216 p; Шедко Ю.Н. Совершенствование механизмов управления устойчивым развитием региона: дис. ... д-ра экон. наук: 08.00.05 [Perfection of mechanisms of management of steady development of region: the dissertation. Dr. econ. sci. abs. diss.: 08.00.05]. Moscow, 2016. 361 p

I.S.Tuxliyev, G.H.Qudratov, T.V.Kim, A.S.Soliyev, D.Q.Usmonova, B.To'rayev, B.Sh.Safarov, Sh.R.Fayziyeva, A.N.Norchayev⁵ va boshqalarning ilmiy izlanishlari va asarlarida turizm sohasini rivojlantirishning nazariy-uslubiy hamda turizmni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga oid muhim materiallar taqdim etilgan. Ammo mamlakatimiz turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va ularga ta'sir etuvchi omillar, iqtisodiy samaradorligi bo'yicha yetarli darajada tadqiqot olib borilmaganligi, bularning barchasi ushbu tadqiqot ishi mavzusini tanlashga asos bo'ldi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti qoshidagi AL- 662205481 sonli "Qashqadaryo vohasi tarixiy va madaniy yodgorliklari, ekoturizmiga oid ziyoratgohlarning" i-turizm" platformasini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyiha bilan bog'liq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi turizm sohasi faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

turizm sohasi tushunchasi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ahamiyati ochib berish;

turizmni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning nazariy va uslubiy asoslarini ko'rsatish;

turizmni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasidan samarali foydalanish yo'llarini tahlil etish;

⁵ Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // I.f.d. diss.- Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-; Mamatqulov X.M. Turizm infratuzilmasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2011. 4-5-betlar., K.B.Suyunova.Turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish// diss. Samarkand: 2022. -195 s.; Абдурахмонов Менежмент туризма: Учебное пособие. - Т.: Филиал ФГБОУ ВПО "РЭУ им. Г.В. Плеханова" в г. Ташкенте, 2013.; Pardaev M.Q., Atabaev R. Turizm asoslari. Samarqand, SamISI. 2006. - 74 b.; Pardaev M.Q., Atabaev R. Pardaev B.R. Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari – T.: "Fan va texnologiya", 2007. – 32 b. Tuxliyev I.S., Qudratov G.H., Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: "Iqtisod va moliya". 2010 – 238 b.; Kim T.B. Инновационное развитие сферы туризма в условиях модернизации экономика. Докторская диссертация. СамИСИ, 2019 – 156 с.; Soliyev A., Rahmatov F. Turizm sohasida bozor munosabatlarining shakllanishi va uning tarmoq samaradorligi ko'rsatkichlariga ta'siri // Servis va turizm: Boshqarish va rivojlantirish muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. -Samarqand. 2007 y., 4-7 sentabr; Усмонова Д.Қ. Особенности формирования туристского продукта и перспективные направления его развития. Иктисод фан. ном. дис. Афтореферати. – Самарканд, СамИСИ, 2009. – 25 б.; Тўраев Б.Х. Теоритико-методологические основы развития туризма. – Т.: изд. "Фан" 2008. – 166 с.; Сафаров Б.Ш. Совершенствование методологическо-методических основ инновационного развития национального рынка туристических услуг. Докторская диссертация. СамИСИ, 2015 – 254 с.; Файзиева Ш.Р. кандидатская диссертация "Совершенствование экономического механизма туризма в Узбекистане", 2006, - 176 с.; Norchayev A.N. Turizm infratuzilmasida kutilayotgan o'zgarishlar va imkoniyatlar. "Iqtisodiyot va innovation texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2019.

turizm faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning hozirgi holatini tahlil qilish;

turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning rag'batlantirish mexanizmiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va tahlil qilish;

turizm faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlarining ko'rsatkichlarini belgilash;

turizm sohasi rivojlanishida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash salohiyatini baholash mexanizmini va tashkiliy-iqtisodiy asoslarining takomillashtirish;

turizm sohasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish istiqbollari;

Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasi mintaqasida innovatsion turizmni rivojlantirishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hisoblanadi

Tadqiqot predmetini mamlakat turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jarayoni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada tizimli tahlil, qiyosiy va statistik tahlil, monografik tahlil, kompleks yondashuv, ekspert baholash, so'rov, umumlashtirish, statistik kuzatish, iqtisodiy modellash, prognozlash, empirik va mantiqiy usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

turistik subyektlar faoliyatini mintaqaviy dasturlar asosida qo'llab-quvvatlash tizimining samaradorligini baholash uslubini amalga oshirish uchun berilgan moliyaviy imtiyozlarning iqtisodiy samarasini hisobga olish asosida takomillashtirilgan;

iqtisodiyot transformatsiyalashuvi jarayonida turizm sohasi faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga ko'ra hududiy innovatsion infratuzilma elementlari zaruriy tarkibi optimal darajasini shakllantirish va barqaror aloqalarini o'rnatish orqali turizm sohasi subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash taklifi asoslangan;

Qashqadaryo viloyati turizmini rivojlantirishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'magi asosida, sayyohlarga yuqori sifatli zamonaviy virtual sayohat loyihasi yordamida xizmat ko'rsatish hamda yalpi hududiy daromadni 3% ga oshirish imkoniyatini yaratuvchi «Qashqadaryo bo'ylab virtual sayohat» turistik dasturi ishlab chiqilgan;

Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan moliyaviy resurslarning investitsiyalar hajmini oshirish ta'sirini baholash bo'yicha 2028 yilgacha prognoz parametrlari ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turizm sohasini rivojlanishining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tizimining samaradorligini baholash uslubini amalga oshirish uchun berilgan moliyaviy imtiyozlarning iqtisodiy samaradorligi tahliliy formulasi ishlab chiqildi;

Qashqadaryo viloyatida turizm sohasidan olinadigan daromadni oshirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mexanizmi va uni takomillashtirish yo'llari, turizm infratuzilmasini mukammallashtirish va sohaga yirik investitsiyalar jalb etish bo'yicha imkoniyatlarni ochib berilgan;

Qashqadaryo viloyati bo'ylab sayyohlarning talab va ehtiyojlarini qondira oluvchi, innovatsion turistik loyiha «Qashqadaryo bo'ylab virtual sayohat» dasturi yaratilgan;

viloyatda turizm sohasi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini oshirish imkoniyatlarini baholash jihatlarini o'zida mujassam etgan mezon va ko'rsatkichlari asosida prognoz ma'lumotlari ishlab chiqilgan.

Olingan natijalarning ishonchliligi. Dissertatsion tadqiqotda olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi ishda qo'llanilgan metodik yondashuv va usullarning asoslanganligi, ma'lumotlar bazasining rasmiy manbalari va monografik kuzatuv natijasida olingani, xulosa, taklif va tavsiyalarining amalda sinovdan o'tkazilganligi, shuningdek, olingan natijalarning O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzurida Turizm qo'mitasi tomonidan ma'qullanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan turizm sohasi korxonalari faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, korxonalar faoliyati samaradorligini baholash usullarini tasniflash, turizm sohasi faoliyatini strategik rejalashtirish hamda turizm infratuzilmasi jarayonlarini boshqarish yo'nalishlarida ilmiy apparatni boyitish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turizm sohasi faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, korxonalarda resurslardan samarali foydalanish, innovatsion faollikni oshirish, sohaga oid me'yoriy hujjatlarni tayyorlash, shuningdek, turizm sohasini samarali rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi, hamda «Turizm nazariyasi» fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20 apreldagi "2022-2026 yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va turizmni sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi VMQ-201-son qaroriga muvofiq Qashqadaryo viloyatini rivojlantirishning besh yillik dasturi qabul qilindi. Ushbu dastur ijrosini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirishda Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti Jabborova Zuhra Abdug'ani qizining 08.00.17- "Turizm va mehmonxona faoliyati" ixtisosligi bo'yicha "Turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya ishida keltirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar amaliyotga joriy qilinmoqda:

1. Turistik subyektlar faoliyatini mintaqaviy dasturlar asosida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining samaradorligini baholash uslubini amalga oshirish uchun berilgan moliyaviy imtiyozlarning iqtisodiy samarasini hisobga olish asosida takomillashtirish "Qashqadaryo viloyatini 2024-2025 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha yo'l xarita"sini ishlab chiqishda foydalanilgan hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzurida Turizm qo'mitasi Qashqadaryo viloyati turizm hududiy boshqarmasi amaliyotiga joriy etilgan (Qashqadaryo viloyati turizm boshqarmasining 2024-yil 19-iyundagi 02-04/358-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy qilinishi natijasida ilmiy asoslangan ko'rsatkichlar tizimi turizmga berilayotgan moliyaviy imtiyozlarining samaradorligini oshirish orqali turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish natijadorligiga erishish yo'nalishlarini aniqlashtirish imkoniyatini kengaytirishda muayyan darajada xizmat qilgan.

2. Iqtisodiy transformatsiyalashuv jarayonida turizm sohasining hududiy infratuzilma elementlarining zaruriy darajasini shakllantirish va barqaror aloqalarni o'rnatish orqali turizm faoliyatini davlat tomonidan imtiyozli moliyaviy qo'llab-quvvatlash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-dekabrda "Qashqadaryo viloyatini 2024-2025 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-389-son va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-aprelda "2022-2026 yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va turizm sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi VMQ-201-son qarorining ijrosini ta'minlashda foydalanilgan hamda Qashqadaryo viloyati turizm boshqarmasi amaliyotiga joriy etilgan (Qashqadaryo viloyati turizm boshqarmasining 2024-yil 19-iyundagi 02-04/358-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijalarini amaliyotga qo'llashda ko'rsatkichlar tizimi turizm sohasida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining samaradorligini aniqlash va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirishga yordam bergan.

3. Qashqadaryo viloyati turizmini rivojlantirishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'magi asosida, sayyohlarga yuqori sifatli zamonaviy virtual sayohat loyihasi yordamida xizmat ko'rsatish hamda yalpi hududiy daromadni oshirish imkoniyatini yaratuvchi «Qashqadaryo bo'ylab virtual sayohat» turistik dasturlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-dekabrda "Qashqadaryo viloyatini 2024-2025 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-389-son va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-aprelda "2022-2026 yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va turizm sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi VMQ-201-son qarorining ijrosini ta'minlashda foydalanilgan hamda Qashqadaryo viloyati turizm boshqarmasi amaliyotiga joriy etilgan (Qashqadaryo viloyati turizm boshqarmasining 2024-yil 19-iyundagi 02-04/358-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi

natijasida Qashqadaryo viloyati turizm salohiyatining oshishi va tashrif buyuruvchi turistlar oqimining ko'payishi, mavjud infratuzilmani rivojlantirilishi va sohadan qo'shimcha daromad olish imkoniyati yaratildi.

4. Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini oshirish imkoniyatlarini kompleks baholash bo'yicha raqobatbardosh innovatsion turizm xizmatlarini ko'rsatish darajasini ta'minlash imkoniyatlarini beruvchi investitsiyalar hajmini oshirishga va turizm sohasini yanada rivojlantirishdagi ta'sirini baholash bo'yicha 2024-2028 yilgacha prognoz parametrlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-dekabrda "Qashqadaryo viloyatini 2024-2025 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-389-son va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-aprelda "2022-2026 yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va turizmni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi VMQ-201-son qarorining ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasining 2024-yil 19-iyundagi 02-04/358-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2024 yildan 2028 yilgacha turizm sohasida xizmat ko'rsatishdan olinadigan daromadlar o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, Qashqadaryo viloyatida 2028 yilda 2023 yilga nisbatan 1,9 barobarga ortishi ta'minlanib, 2010 bazis yilga nisbatan real qiymatda 153,4433 mlrd so'mdan iborat bo'lishi prognoz qilingan asoslangan.

Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan ushbu taklif va tavsiyalar Qashqadaryo mintaqasi turizmni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan, 8 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, ulardan, 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib tarkibida uning hajmi 147 betdan iborat.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining «**Turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari**» deb

nomlangan birinchi bobida zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotdagi aralashuvi va uni qo'llab-quvvatlashdagi roli to'g'risidagi ilmiy qarashlar evolyutsiyasi, turizmni rivojlantirish mexanizmi tushunchasi, turizm sohasida uni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari, bu borada uning ustuvor vazifalari ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra hozirgi kunda turizm sohasi faoliyati va iqtisodiy jarayonlarida davlat institutlari ishtirokining zarurligi to'g'risida olimlar o'rtasida hech qanday tortishuvlar yo'qligi, asosiy baxs-munozaralar faqat davlat aralashuvining ko'lamini, darajasi xususida ekanligini ko'rsatadi. Dissertatsiyada ushbu xulosaning isboti sifatida A.M.Babashkina⁶, Yu.N.Shedko⁷, K.Suyunova⁸ hamda boshqa mualliflarning fikr mulohazalari keltirib o'tilgan. Yuqorida o'rganilgan ilmiy tadqiqotlar jarayonida "Iqtisodiy tarmoqlardan biri turizm sohasiga davlat aralashuvi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash" tushunchasiga ta'rif berishda tadqiqotchilar o'rtasida yakdillik yo'qligi, ularda turli mazmundagi bir necha iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish asosidagi fikrlarning mavjudligi aniqlandi. Jahon iqtisodiy bozorida qisqa fursatda katta daromad keltiruvchi ushbu soha rivojlanishida davlatning qo'llab-quvvatlashi o'rganish jarayonida turizm va turizmni rivojlantirish mexanizmi tushunchasi ham keng tahlil qilinib, mualliflik ta'rifini ishlab chiqildi. Unga ko'ra, turizmni rivojlantirish mexanizmi - tarmoqning faoliyat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi va ularning o'sishiga olib keluvchi, tarmoqning rivojlanishini ta'minlovchi o'zaro uzviy bog'liq elementlar majmuidir. Shundan kelib chiqqan holda, turizmni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash turizm sohasi moliyaviy barqarorligini taminlash, iqtisodiy o'sish va tashqi turistik munosabatlarni samaradorligini ta'minlashga qaratilgan faoliyat majmuasidir degan xulosaga keldik.

Turizm sohasini rivojlanishida davlat aralashuvining roli davr talablari nuqtai nazardan takomillashtirish siyosatini amalga oshirishda 2021 yil 6 apreldagi PF-6199-sonli "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi⁹ va 2023 yil 27 avgustdagi PQ-238-sonli "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi¹⁰ Prezident qarorida mazmun mohiyati va ahamiyati davlat boshqaruvining samarali tashkil etilishi orqali turizm iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar keltirib o'tilgan.

⁶ Бабашкина А.М. Государственное регулирование национальной экономики / А.М.Бабашкина. – М.: Финансы и статистика, 2007. – С. 12

⁷ Шедко Ю.Н. Совершенствование механизмов управления устойчивым развитием региона: дис. ... д-ра экон. наук: 08.00.05 [Perfection of mechanisms of management of steady development of region: the dissertation. Dr. econ. sci. abs. diss.: 08.00.05]. Moscow, 2016. 361 p.

⁸ K.B.Suyunova.Turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish// diss. Samarkand: 2022. -195 s

⁹ 2021 yil 6 apreldagi PF-6199- sonli "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni. <https://lex.uz/uz/>


¹⁰ 2023 yil 27 avgustdagi PQ-238-sonli "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi¹⁰ Prezident qarori. <https://lex.uz/uz/>

Shunday bo'lsada, davlatning turizm iqtisodiyotiga aralashuvini qisqartirish borasida hali yechilmagan muammo va kamchiliklarning mavjudligi, asosiysi ma'muriy tartibga solish yukuning yuqoriligi tizimning muammolari sifatida asoslab berilgan. 2024 yilga kelib O'zbekiston Iqtisodiy erkinlik indeksida 184 ta davlat ichida 103 o'rinni egallagani, o'tgan yillarga nisbatan 6 pog'ona yuqorilagan bo'lsada, iqtisodiyoti erkin bo'lmagan davlatlar guruhida qolayotganligi, to'gridan-to'g'ri investitsion oqim ko'rsatkichining pastligi kamchiliklar va muammolar mavjud ekanligini asoslab beradi. Fikrimizcha, davlat tomonidan bugungi kunda berilayotgan moliyaviy imtiyoz va preferensiyalar taqdim etilishi jarayonida mavjud subyektlar samaradorligini baholash hamda davlat korxonalari faoliyati shaffofligiga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Tadqiqot natijalaridan nazariy xulosamiz shundan iboratki, turizmni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash usul va vositalari turizmni iqtisodiyotning alohida turi sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rni va rivojlanish sur'atlari bilan boshqa tarmoq sohalaridan sezilarli farq qiladi. Xususan, ushbu sohasini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'p bosqichli tuzilmada: xalqaro, milliy, mintaqaviy va mahalliy darajada olib borilmoqda. Ushbu faoliyat zamonaviy sharoitlarda, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida turizm sohasiga bog'liq ma'lum subyektlar faoliyatida davlatning aralashuvi nazarda tutiladi.

Davlat tomonidan turizm sohasi faoliyatiga aralashuvi qilingan tadqiqotlarimiz natijasida bir necha shakllarga ega ekanligi aniqladik. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllaridan rag'batlantirish va ko'maklashish ko'rinishlarini ajratib oldik (1-rasm). Ularga iste'molchilar talabini shakllantirish; subsidiya; imtiyozli kredit berish; lizing to'lovlari xarajatlarining bir qismini subsidiyalash; ko'rik-yarmarka tadbirlarini tashkil qilish; favqulodda yuzaga kelgan vaziyatlarda moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish; turizm sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali qo'shimcha imtiyozlar yaratish; turizm va unga turdosh tarmoqlar infratuzilmasini rivojlantirish kiradi.

Tadqiqot natijalaridan nazariy xulosa shundan iboratki, turizm sohasini rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash usullari, amalga oshirish vositalari, ko'lami va boshqa ayrim jihatlari bilan boshqa tarmoq va sohalardan sezilarli farq qiladi. Ushbu farqlar turizm iqtisodiy faoliyatining alohida turi sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari va uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tutgan o'rni bilan bog'liq bo'lib, tarmoqni rivojlantirish sur'atlarida o'zining yorqin ifodasini topadi. Davlat tomonidan turizm sektorini rivojlantirish va tartibga solish funksiyasi turizmni muvoffaqiyatli rejalashtirish, ma'lum normativ-huquqiy hujjatlar orqali tartibga soluvchi va moliyaviy ko'mak beruvchi, ichki va xalqaro turistik bozorda moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni o'rnatishda ko'mak berish kabi qator vazifalarni o'z ichiga oladi.



1-rasm. Turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllari¹¹

Jahon tajribalari va ko'pgina ilmiy adabiyotlarda turizm sohasi faoliyatiga davlatning aralashuvi mavjud modellar asosida yoritib berilgan. Ular quyidagilar: birinchi model mustaqil turizm vazirligi mavjud mamlakatlar (41 mamlakat), ikkinchi modelga turizm va ishlab chiqarish sohalari vazirligi birlashuvi (36 mamlakat) hamda turizm va noishlab chiqarish sohalari vazirligi birlashuvi mavjud (42 ta) mamlakatlar, uchinchi modelga ko'p tarmoqli milliy turistik boshqarmalar (32 ta) hamda davlat boshqaruvidagi milliy turistik boshqarmalar (60 ta), to'rtinchi modelga turizm sohasida markaziy ijro etuvchi organi mavjud bo'lmagan (93 ta) mamlakatlar kiritilgan¹².

Hozirgi kunda O'zbekistonda yaratilgan turizmni tartibga solishda davlatning o'rnini aks ettiruvchi modelni ikkinchi model toifasiga kiritish mumkin.

Dissertasiya ishining «**Turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning hozirgi holati va samaradorligini oshirish tahlili**» deb nomlangan ikkinchi bobida turizm sohasining bir necha indikatorlari, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'rsatkichlari hozirgi holati va tahlili, turizm sohasi subyektlari faoliyati rag'batlantirish ma'muriy-huquqiy shakllari tizimi, turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlar samaradorligi tahlili amalga oshirilgan.

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

¹²

Tahlil jarayonida mamalakatimizda turizm sohasida amalga oshirilgan faoliyatning 2017-2023 yillar oralig'i belgilab olingan. Shu davr mobaynida malakatimiz hududi hamda Qashqadaryo viloyatida turizmning yuksalish davri va pandemiya sharoitida yuzaga kelgan muammolar, ularni bartaraf etish hamda keyingi tiklanish davrida amalga oshirilgan davlat tomonidan ko'rsatilgan amaliy yordam va chora-tadbirlar aks etgan. Aynan ana shu ketma-ketlikda tahlil jarayoni amalga oshirildi, uning natijalaridan tegishli xulosalar chiqarildi.

Olingan statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonga kelgan xorijiy sayyohlar soni 2023 yilda 5 mln 745 ming kishini tashkil etsa, 2017 yilga nisbatan 3 mln kishiga ko'payganini ko'rsatadi. Ichki turizm esa bu oraliq muddatda turistik dinamikasida katta farqqa ega. Xususan, 2017 yilda ichki turistlar oqimi 422 ming 935 kishini tashkil etsa, 2023 yilga kelib bu ko'rsatkich 14 mln 900 ming kishini tashkil etmoqda. Mamlakatimiz hududidagi turistik firma va tashkilotlar soni ham ortib 2023 yil natijalariga ko'ra 2404 taga yetgan.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining 2017-2023 yillardagi turizm rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari¹³

№	Ko'rsatgichlar nomlari	O'lchov birligi	Yillar							2023 yil 2017yilga nisbatan o'zgarishlar (+,-)
			2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	
1	O'zbekistonga kelgan xorijiy fuqarolar soni	ming. kishi	2690,0	5346,3	6748.5	1504.1	1881,3	5232.8	6626.3	3055.3
2	Xorijga chiqib ketgan O'zbekiston fuqarolari	ming. kishi	2995.6	4209.0	4087.6	1805.2	2194.8	5163.2	6321.4	3325.8
3	Ichki turizm	ming. kishi	422935	15400,0	16900,0	1500.0	7000.0	11300.0	14900.8	14477.8
4	Turistik firma va tashkilotlar soni	birlik	749	860	1255	1482	1262	1282	2404	1655
5	Mehmonxona va muqobil joylashtirish vositalari	birlik	767	914	1092	1188	2394	5000	5500	4733

Bu 2017 yilga solishtirib olganda turistik firma va tashkilotlarining 1655 taga ortganini bildiradi. Turistik obektlar va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishi aholi daromadining ortishini ko'satmoqda. (1-jadval)

¹³ O'zbekiston Respublikasi ekologiya atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi turizm qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Tarmoqni rivojlantirish bo'yicha Prezidentimiz tashabbusi bilan sohani tez sur'atlarda rivojlantirishga yo'naltirilgan me'yoriy hujjatlar qabul qilinishi va ularning ijrosi bo'yicha izchil harakatlar natijasi o'laroq keskin ijobiy jarayonlar sodir bo'lganini alohida ta'kidlamoqchimiz.

2-jadval

Qashqadaryo viloyatida turizm sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlari¹⁴

№	Ko'rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
1	Viloyatda turizm xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd so'm	2019,33	3077,91	9019,91	4174,04	22951,88	22265,67	81215,39
2	Qashqadaryo viloyatida tashrif buyuruvchilar soni, kishi	1833.0	1801.0	1799.0	119.0	1442.0	1487.0	2010.0
3	TF va T tomonidan xizmat ko'rsatilganlar tashrif buyuruvchilar, kishi	420	422	635	870	960	1002	1270
4	Sotilgan yo'llanmalar soni, birlik	102	106	145	111	89	103	135
5	Ichki turizm	1816	1747	1649	48	1400	1433	1800
6	Turizm sohasida band kishilar soni	1600	1940	2600	2600	4600	5400	12500


Shuni qayd etishimiz lozimki, 2023-yilda O'zbekiston Respublikasida tashrif buyuruvchilar oqimining 2019 yilga nisbatan biroz past ko'rsatkichdaligi, biroq mamlakatimizning yirik turistik mintaqalaridan biri hisoblangan Qashqadaryo viloyatida bu ko'rsatkich deyarli yarim barobarga o'sganligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, tashrif buyurgan turistlarga oqimining yuqoriligi ularga ko'rsatilayotgan xizmatlarning miqdorini oshishiga sabab bo'ladi. Qashqadaryo viloyati 2023 yilning so'nggida turizm sohasidan 81.215 mlrd so'm miqdorida daromadni qo'lga kiritdi. Bu ko'rsatkichlar 2021 yilda 22.951 mlrd so'mni tashkil qilgan. Bu esa daromadning o'tgan yilga nisbatan deyarli to'rt barobar ko'payganini ko'rsatadi. Turizmni rag'batlantirish maqsadida Qashqadaryo viloyatida davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar asosida va xususiy tadbirkorlik subektlari tomonidan amalga oshirilgan turistik loyihalar soni 2020 yilda 2 ta tashkil qilgan bo'lsa, davlat boshqaruvining aralashuvi va ko'magi, turizmni rivojlantirishga asoslangan targ'ibot ishlarining natijasi o'laroq keyingi yillarda, xususan, 2021 yilda 30 ta, 2022 yilda esa 88 ta loyiha amalga oshirilgan. Natijaviy ko'rsatkichlar yana shuni ko'rsatadiki amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar aholi turmush tarzi va band kishilar sonini oshirishga yordam bermoqda. 2017 yilda shu sohada faoliyat yuritayotgan band kishilar soni 1600 tani tashkil etsa, 2023 yilga kelib 12500 ga yetgan (2-jadval).

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi qoshidagi Turizm boshqarmasi malumotlariga asosan muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Qashqadaryo viloyati turizm xizmatlari eksportining dastlabki yillari va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash islohotlari amalga oshirilgan so'nggi yillarda o'sish sur'atlarining qiyosiy tahlili asosida davlatning turizm sohasida olib borayotgan qo'llab-quvvatlash siyosati hozirgi holati samarali degan xulosaga kelindi.

2-



rasm. Qashqadaryo viloyatiga kiritilgan investitsiyalar miqdori¹⁵

Disseratatsiyani bajarish jarayonida amalga oshirilgan tahlil natijalari turizm eksporti bilan bir qatorda, tarmoqning boshqa muhim ko'rsatkichlari dinamikasiga ham kattta ta'sir ko'rsatdi. Xususan, 2022 yilning o'zida Qashqadaryo viloyatiga 86.2 milliard so'm miqdorida investisiya kiritilgan bo'lsa, 2023 yila bu ko'rsatkichlar 200.1 milliard so'm miqdoriga ko'tarildi. Bu o'tgan yilga nisbatan investitsiyalar miqdorining 1.5 barobar oshganligini ko'rsatadi. Kiritilgan investitsiyalar malum turistik obektlarni qayta tamirlash, yangi ko'ngilochar manzilgohlarni tashkil etish yoki mavjud turistik korxonalar faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan(2-rasm).

Butun jahon mamalakatlari va jadal taraqqiyot yo'lida rivojlanib kelayotgan mamlakatimiz turizm sohasi koronavirus pandemiyasi tufayli batamom izdan chiqdi. Jahondagi barcha mamlakatlar turizmida boshlangan inqiroz mamlakatimiz turizmiga, uning rivojlanish ko'rsatkichlarining o'sish sur'atlariga ham jiddiy zarar yetkazdi. Dissertatsiyada koronavirus pandemiyasining salbiy oqibatlari tufayli mamalakat turizm sanoataiga yetkazilgan zararining ko'lami va yo'qotishlari, hamda ushbu davr mobaynida inqirozini yengib o'tish uchun davlat tomonidan berilgan imtiyozlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmi aniq ma'lumotlar yordamida tahlil qilindi.

Turstik korxona va tashkilotlarning faoliyatini qayta tiklashga berilayotgan yordam sifatida pandemiya sharoitida yetkazilgan zarar inqirozga qarshi kurashish bo'yicha 2025 yil 1 yanvarga qadar daromad solig'i va ijtimoiy soliq bo'yicha soliq

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi ekologiya atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi turizm qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

solinadigan baza har yili sanitariya-gigiena ob'ektlarini, sayyohlik infratuzilmasi ob'ektlarini saqlash uchun 12 million so'mgacha bo'lgan xarajatlar miqdori qoplanishi¹⁶, hamda 4 yulduzli mehmonxonalar va motellar foydalanishga topshirilgan kundan boshlab 5 yil muddatga daromad solig'i, yer solig'i va mol-mulk solig'i, shuningdek aylanma solig'ini to'lashdan ozod qilinadi¹⁷.

Iqtisodiy qonuniyatga ko'ra sarflangan mablag', sarf-xarajat molivaviy resurslar egasiga muayyan darajada manfaat keltirishi va to'la qoplanishi lozim. Davlat ham turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan qo'llab-quvvatlash maqsadida sarflangan moliyaviy resurslaridan ma'lum natijaga erishishi lozim. Shu sababli tadqiqotimiz jarayonida turizm sohasini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash samaradorligini baholashni tahlil qilindi va samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi. Turizm sohasini rivojlantirish uchun amalga oshirilgan tadbirlar samaradorligini aniqlash uchun quyidagi formula ishlab chiqildi. Unga ko'ra turizmni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlarini amalga oshirishdan olingan bilvosita va bevosita daromadlar yig'indisining tadbirlarni amalga oshirish sarf xarajatlariga nisbati turizm sohasini rivojlantirishdagi samaradorlik ko'rsatkichini aniqlab beradi.

$$C = \frac{\sum_{t=1}^n (Dbl + Dbe)}{\sum_{t=1}^n Cx}$$

C - turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash natijasida olinadigan samaradorlik;

Dbl – q.q.t. amalga oshirish natijasida olingan bevosita daromad;

Dbe - q.q.t. amalga oshirish natijasida olingan bilvosita daromad;

Cx - q.q.t. amalga oshirish bo'yicha sarf-xarajatlar;


Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash natijasida olinadigan bilvosita daromadga malakali mutaxassislarni jalb qilishdan olinadigan daromad, innovatsiyalar va markazlashmagan sarmoyani kiritsak, to'g'ridan-to'g'ri daromad esa kamchilik va yo'qotishlarni bartaraf etish va resurslarni tejash hisobidan shakllantiriladi.

Tadqiqot jarayonida turizm sohasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati va ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi, turistlar soni dinamikasini ko'rsatuvchi indikatorlar, samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi va ularni tahlil qilinayotgan davrda o'sish dinamikasi o'rganildi. Yuqorida o'rganilgan ilmiy

¹⁶O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 apreldagi PQ-135-son «Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi Qarori. [Elektron resurs]. – Kirish yo'li: <https://lex.uz>

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 maydagi PF-6002-sonli «Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni.

izlanishlarimiz natijasi o‘laroq turizm sohasining iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlarini o‘stirishga yordam beruvchi takliflar ishlab chiqildi (2-rasm).



3-rasm. Turizm sohasining iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari¹⁸

Ushbu taklifning realizatsiya qilinishi har bir hududga muvofiq moliyaviy mablag‘larni konsentratsiyalash zarurligini ifodalaydi. Rivojlanayotgan iqtisodiy bozor maydonida zaruriy resurslarni, ya’ni hududlarda turizmini rivojlantirishda manfaatdor turistik xizmat ko‘rsatuvchi barcha subyektlarga respublika va mahalliy byudjet orqali ta’sir ko‘rsatishni nazarda tutadi. Davlat va turizm sektori kooperatsiyali hamkorligi-ushbu taklifda uchlik: davlat, xususiy biznes va ilm-fan sohalarining o‘zaro hamkorlik aloqalarini huquqiy jihatdan mustahkam bog‘lash orqali hududiy turizm bozorining samarali rivojlanishiga erishish mumkin. Turizm xizmatlar bozorini davlat tomonidan qo‘llab quvvatlashning «egiluvchan yondashuv» mexanizmini shakllantirish-davlat turizm sohasi faoliyatiga turlicha usullar va vositalar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Investitsiya

¹⁸ Muallif tomonidan ishlabchiqilgan.

va kredit ajratish tizimining manfaatdorlik istiqbollari oshirish-turizm korxonalari faoliyatini rivojlantirishda investitsiya va kreditlash tizimi uning moliyaviy imkoniyatlarini kuchaytiradi. Bu esa turizm korxonalarini jadal rivojlanishiga yordam beradi, yangi tur mahsulotlar paydo bo'lishi, ilmiy-texnikaviy jarayon jadallashi uchun zarur sharoitlar yaratib, ular taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Turizm sohasini rivojlantirish mexanizmi va rejalarini amalga oshirishda bilvosita daromadlar tarkibiga ushbu vazifalarni hal etishga markazlashmagan sarmoyalar, innovatsiyalar, yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish xisobidan olinadigan daromadlarni kiritish tavsiya etiladi.

Dissertasiya ishining **«Turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari»** deb nomlangan uchinchi bobida turizm sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari aniqlanib, sohada faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar asoslangan, Qashqadaryo viloyati bo'ylab virtual sayohat dasturi tuzilgan, turizm sohasi subyektlarining innovatsion faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan va sohani rivojlantirish istiqbollari prognoz ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

Turizm sohasida innovatsion faollikni oshirish bo'yicha davlat dasturlari doirasida belgilangan vazifalarga muvofiq quyidagi yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish zarur: «Turizm sohasiga doir me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish», «Kadrlar tayyorlash tizimi», «Innovatsion faoliyatni realizatsiya qilish asosida turistik subyektlar va tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish», «tourism innovation center» markazi faoliyatini yo'lga qo'yish hamda «Moliyaviy qo'llab-quvvatlash» va h.k(4-rasm).

1. Turizm sohasiga doir me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish. Mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish orqali uning konseptual asosida innovatsion faoliyatga oid munosabatlarni tartibga solishdagi qarama-qarshiliklarni oldini olish. Kichik turistik firmalar va innovatsion korxonalarining patentlar va abligatsiyalar bilan o'zaro iqtisodiy muomala imkoniyatini yaratish maxsus platforma tashkil etish va uning hududiy ommalashuvini taminlash bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish; kichik turistik innovatsion korxonalar faoliyatining huquqiy jihatlari va maqomini qonuniy asosda mustahkamlash.

2. Infratuzilmani rivojlantirish. Yaratilgan innovatsion g'oyalarni patentlash orqali va mavjud tuzilmalar faoliyatini boshqarish uchun bazaviy imkoniyatlarni yaratish (bino, kerakli jihozlarni ijaraga yoki vaqtincha tekin foydalanishga berish) yo'li bilan mulkiy yordam ko'rsatish. Ma'lum hududiy tuzilmalarda turistik innovatsion loyihalar tanlovini tashkil etish va zamonaviy texnologik imkoniyatlarga ega markazlar-texnologiyalar transferi markazini tashkil etish, malum nuqtalarda ko'chma aloqa punktlarini tashkil etish.

3. Dasturni moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash. Turistik subyektlar faoliyatida yangi innovatsiyalarni joriy etish davri mobaynida sarf-xarajatlarni pasaytirish maqsadida davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun boj va tariflarning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish. Kichik turistik subyektlar va korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida subsidiyalar berish va davlat byudjeti hisobidan ajratilgan ssudalar orqali innovatsion faoliyatni himoya qilish bilan bog'liq faoliyatni moliyalashtirish. Tijorat banklari va kredit tashkilotlari tomonidan imtiyozli foiz stavkasida turizm sohasida innovatsiyalarni joriy etilishiga doir kreditlarni ajratilishi. Xorijiy investorlarga dividendlar bo'yicha soliqlarning imtiyozli stavkalarni taqdim qilish¹⁹;

$$D_{tax} = (K_{otn} D_1) t_{rate},$$

Bu yerda: D_{tax} – dividendlarga soliq, bu ko'rsatkich investorlar tomonidan olingan dividendlar summasini to'lanadigan dividendlarning umumiy miqdoriga nisbati bo'yicha aniqlanadi.

4. Kadrlar tayyorlash tizimi. Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq turistik xizmatlarni rivojlantirish ko'zda tutilgan korxona va tuzilmalarda talabalar amaliyotini tashkil etish. Turistik subyektlar va yirik turistik sektor xodimlari uchun talablarga ko'ra qayta tayyorlov va malaka oshirish kurslarini tashkil etish.


5. Turizm sohasida innovatsion faoliyatni amalga oshirishda subyektlar va davlat muassasalari o'rtasida hamkorlik mexanizmini takomillashtirish. Turistik innovatsion korxonalarining xo'jalik faoliyati hisobini yuritish va bepul tarqatish imkonini beruvchi dasturiy ta'minotni ishlab chiqish. Investorlar sifatida davlat, xususiy, aralash va shaxsiy mulk shakllaridagi mahalliy va xorijiy investitsiya kirituvchilarni jalb qilish va subtarmoq sohalarning ham rivojdantirish. Innovatsiyalarning bir necha turlarini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni tashkil etish: ham normativ huquqiy hujjatlar orqali.

6. «Tourism innovation center» xizmatlarini yo'lga qo'yish va axborot taminotini tashkil etish. Markazining turistik innovatsion faoliyat uchun xizmatlarni tashkil etish va davlat organlari bilan turizm subyektlari faoliyatining mutanosib integrasiyalashuvi asosida, ularni o'zaro bog'lash orqali xizmatlarni yo'lga qo'yish, turistik innovatsion ishlanmalar natijalarining ma'lumotlar bankini shakllantirish, kichik va xususiy korxonalar xodimlari, shu jumladan turistik subyektlar, kichik yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlarning ma'lumotlar bankidan bepul foydalanishini ta'minlash.

Turizm industriyasi davlat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, u yuqori raqobatbardosh va shu bilan birga ma'lumotlarga boy bo'lib, iste'molchilarning xulq-atvoridagi o'zgarishlarga zudlik bilan javob berishni nazarda tutadi. Bu, ayniqsa, turizm xizmatlarida namoyon bo'ladi, chunki u marketing strategiyasi muvaffaqiyatining asosiy omili bo'lgan ommaviy raqamlashtirish davrida iste'molchilarning e'tiborini jalb qilmoqda

¹⁹ Меджитов А.И. Организационно-экономические основы государственного регулирования инновационного предпринимательства в сфере услуг региона // дисс. экон. наук. – М.: 2011. – С. 121. https://new-disser.ru/product_info.php?products_id=729859


Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi takomillashtirish yo‘llari



4-rasm. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo‘llari²⁰

²⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Ijtimoiy hayotimiz va sayyohlik faoliyatimiz tobora texnologik tus olmoqda, jahon turizmi sohasida yangi yagona axborot makonini shakllantirmoqda, axborot bilan ta'minlash va turizmni boshqarish tizimi ishlab chiqilmoqda. Shu kabi tizimlardan biri virtual sayohat dasturini ayta olamiz. Dissertatsiya ishi amaliy natijalari sifatida Qashqadaryo viloyati bo'ylab virtual sayohat web ilovasi namunasi yaratildi. Ushbu dastur orqali juda arzon va qulay sayohat qilish imkoniyatini beradi. Bunday sayohatga tayyorgarlik ko'rish uchun ortiqcha vaqt talab qilmaydi, hamda xohlagan vaqtda boshlangan sayohat istalgan vaqtga to'xtatilish va yana davom ettirilishi mumkin (5-rasm).




5-rasm. Qashqadaryo bo'ylab virtual turizm dasturining amaliy namunasi²¹

Shu bilan birga virtual sayohat dasturi ota-onasining kuzatuvizsiz chegarani kesib o'ta olmaydigan o'spirinlar va erkin harakatlanishiga imkon bermaydigan oilaviy majburiyatlar yuklangan odamlar: bolali onalar, ko'p bolali ota-onalar va boshqalar hamda hudud bo'ylab tasavvurga ega bo'lmagan sayyohlar uchun bu ajoyib imkoniyat beradi. Ushbu ilova tarkibiy qismi asosiy ikki qismga bosh sahifa va yordamchi qismdan tarkib topgan. Bosh sahifa o'z navbati bir necha tarkibiy qismdan tashkil topgan.

Ushbu dastur ishlash funksiyasi Qashqadaryo viloyati hududidagi turistik obyektlar haqida axborot beradi va onlayn ko'rish imkoniyatini taqdim etadi. Belgilangan hududlar bo'icha namuna sifatida tanlangan obyektlar asosida 3D effektidagi raqamli sayohat tashkil etilgan. Ponorama shaklida tashkil etilgan sayohat arzon, xavfsiz va tomoshabinni o'ziga jalb etishi bilan ajralib turadi. O'tkazilgan so'rov natijasida virtual sayohat dasturining foydalanuvchilari 18 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan respondentlar tashkil etishi aniqlandi. Bu esa aholi qatlamining katta qismi onlayn sayohatga qiziqishini ko'rsatadi.

²¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



6-rasm. Qashqadaryo bo‘ylab virtual sayohat dasturining tarkibiy qismi²²

Ushbu dasturning ishga tushirilishi Qashqadaryo viloyati iqtisodiy salohiyatini oshirishda yordam beradi. Turizm sohasini rivojlantirish maqsadida tarmoqning istiqbolli ko‘rsatkichlarini prognozlashtirishda asosiy natijaviy ko‘rsatkichlarga asoslangan holda tahlil qilamiz. Bu esa natijaviy omilning asosiy ichki omillar bilan bog‘liqliq yondoshuvini ustuvor baholash imkoniyatini beradi. Shundan kelib chiqib, quyidagi ko‘rsatkichlarni belgilab olamiz:

Y_{xkh} – Qashqadaryo viloyatida turizm xizmat ko‘rsatish hajmi, mln so‘m;

Y_{tbs} – Qashqadaryo viloyatida tashrif buyuruvchilar soni, kishi;

X_1 – Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni, ming kishi;

X_2 – Qashqadaryo viloyatidagi mehmonxonalar soni, birlik;

X_3 – Qashqadaryo viloyatidagi turistik firma va tashkilotlar soni, birlik;

X_4 – Qashqadaryo viloyatidagi turistik firma va tashkilotlar tomonidan xizmat ko‘rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni, kishi;

X_5 – Sotilgan yo‘llanmalar soni, birlik;

X_6 – Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurgan mahalliy sayyohlar soni, kishi;

X_7 – Qashqadaryo viloyatiga turizm sohasida bandlar soni, kishi;

X_8 – Qashqadaryo viloyatiga turizm sohasida kadrlar salohiyati, (oliy ma'lumotli

²² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

xodimlar soni), nafar;

X_9 – Qashqadaryo viloyatiga turizm tarmog‘iga ajratilgan imtiyozli bank kreditlari hajmi, mln so‘m;

X_{10} – Qashqadaryo viloyatida turizm sohasida tadbqiq etilgan innovatsion loyihalar soni, birlik.

Hisoblash natijalariga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatida:

- tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni keyingi 5 yilda, o‘rtacha 15,7 foizdan o‘shib boradi. 2028 yilda 2023 yilga nisbatan 2,07 barobarga ortib, 435,216 ming nafarga etishi ta'minlanadi;

- turistik firma va tashkilotlar tomonidan xizmat ko‘rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni keyingi 5 yilda, o‘rtacha 2,4 foizdan o‘shib boradi. 2028 yilda 2023 yilga nisbatan 1,12 barobarga ortib, 1427 nafarga etishi ta'minlanadi;

- turizm sohasida bandlar sonining keyingi 5 yilda o‘rtacha o‘shish sur'ati 11,8 foizni tashkil etib, 2028 yilda 2023 yilga nisbatan 1,75 barobarga ortadi; - turizm tarmog‘iga ajratilgan imtiyozli bank kreditlari hajmi keyingi 5 yilda o‘rtacha o‘shish sur'ati 14,7 foizni tashkil etib, 2028 yilda 2023 yilga nisbatan 1,98 barobarga ortadi. Real qiymatda (2010 bazis yilga nisbatan) 63,405 mlrd so‘mga etishi ta'minlanadi (3-jadval).

3-jadval.

**Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarning
prognoz ko‘rsatkichlari²³**

Prognoz yillari	X_1 Tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni, kishi	X_4 Turistik firma va tashkilotlar tomonidan xizmat ko‘rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni, kishi	X_7 Turizm sohasida bandlar soni, kishi	X_9 Turizm tarmog‘iga ajratilgan imtiyozli bank kreditlari hajmi, mln so‘m*
2024	214824	1298	12307	34468,5
2025	232598	1328	13067	37439,1
2026	273753	1359	14583	45004,2
2027	322142	1392	16820	53237,3
2028	435216	1427	19827	63404,9
2024-2028 yillarda o‘rtacha o‘shish sur'ati, foizda	15,7	2,4	11,8	14,7
2028/2023 nisbat, marta	2,07	1,12	1,75	1,98

* bu yerda X_9 ko‘rsatkichning real qiymatlari 2010 yil narxlar indeksi asosida hisoblangan

Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarning prognoz

²³ Muallif tomonidan hisoblab tuzilgan

ko'rsatkichlari va tuzilgan (3.1) va (3.4) shaklidagi chiziqli ko'p omilli ekonometrik modellar yordamida Qashqadaryo viloyatida turizm xizmat ko'rsatish hajmi hamda tashrif buyuruvchilar oqimi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini hisoblab chiqildi (3-jadval).

Unga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida:

- turizm xizmat ko'rsatish hajmining keyingi besh yillikda o'rtacha o'sish sur'ati 13,7 foizni tashkil etgani holda, 2028 yilda 2023 yilga nisbatan 1,9 barobarga ortishi ta'minlanib, 2010 bazis yilga nisbatan real qiymatda 153,4433 mlrd so'mga etadi;

- turizm xizmat ko'rsatish hajmining keyingi besh yillikda o'rtacha o'sish sur'ati 15,6 foizni tashkil etgani holda, 2028 yilda 2023 yilga nisbatan 2,07 barobarga ortishi ta'minlanadi (4-jadval). Qashqadaryo viloyatida turizm xizmat ko'rsatish hajmining yuqori sur'atda o'sishida tarmoqda mehnat qilayotgan xodimlar sonining hamda imtiyozli kreditlar hajmining ortishi katta ta'sirga ega bo'ladi.

4-jadval.

Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirishning o'rta muddatli prognoz ko'rsatkichlari²⁴

Prognoz yillari	Y _{xkh}	Y _{tbs}
	Turizm xizmat ko'rsatish hajmi, mln so'm	Tashrif buyuruvchilar soni, ming kishi
2024	87506,60	216,619
2025	93701,32	234,464
2026	111425,53	275,809
2027	129918,61	324,425
2028	153443,25	438,061
2024-2028 yillarda o'rtacha o'sish sur'ati, foizda	13,7	15,6
2028/2023 nisbat, marta	1,90	2,07

Jumladan, yuqorida keltirilgan modellashtirish natijalariga ko'ra, mintaqada turizm xizmat ko'rsatish hajmining ortishi bandlar sonining 1 foizga oshganda 0,7 foizga, ajratilgan imtiyozli bank kreditlari hajmining 1 foizga oshganda 0,6 foizga ortishi asoslangan edi. Demak, model asosida hisoblab chiqilgan qiymatlarga ko'ra:

- Qashqadaryo viloyati turizm tarmog'iga ajratilgan imtiyozli bank kreditlari hajmining ortishi bilan keyingi besh yillikda mintaqada turizm xizmat ko'rsatish hajmi real qiymatda, o'rta hisobda 10,161 mlrd so'mdan, bandlar sonining ortishi bilan esa 9,515 mlrd so'mdan oshib borishi ta'minlanadi.

²⁴ Muallif tomonidan hisoblab tuzilgan

- Qashqadaryo viloyati turizm tarmog'ida tashriflar sonining, ya'ni sayyohlar oqimining ortishida xorijiy sayyohlar oqimi hal qiluvchi rolga ega bo'ladi. Shuningdek, tarmoqqa tadbqiq etilayotgan har bir innovasion loyiha yillar kesimida mazkur oqimning mutlaq 1112 kishiga ortib borishini ta'minlab beradi.

XULOSA

Dissertasiya ishida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosa, takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Dissertasiyada respublikamizda turizm sohasining nazariy asoslarini shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatini yaratuvchi asosiy tushunchalarning mualliflik tariflari takomillashtirildi. Jumladan, «turizm», «turizmni rivojlantirish mexanizmi» tushunchalariga muallif tomonidan berilgan tariflar turizm sohasining iqtisodiy mohiyatini hisobga olgan holda aniqlash imkoniyatini beradi. Shunga ko'ra: turizmni rivojlantirish mexanizmi - tarmoqning faoliyat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi va ularning o'sishiga olib keluvchi, tarmoqning rivojlanishini ta'minlovchi o'zaro uzviy bog'liq elementlar majmuidir. Turizmni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash turizm sohasi moliyaviy barqarorligini taminlash, iqtisodiy o'sish va tashqi turistik munosabatlarni samaradorligini ta'minlashga qaratilgan faoliyati ekanligi aniqlandi.

2. Turizm sohasi iqtisodiy samaradorligini tavsiflovchi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash natijasida sohani rivojlantirish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar ilmiy asoslangan. Turizm sohasi iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish orqali yirik turizm infratuzilmasini takomillashtirish, tashkiliy boshqaruv tizmini modernizatsiyalash, jahon mamlakatalari ijobiy tajribalari va modellari asosida turizm davlat aralashuvini asosidagi ijobiy o'zgarishlar tahlil qilingan.

3. Turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tizimi tashkiliy-boshqaruv mexanizmini takomillashtirish va amaliyotda qo'llash bilan bog'liq bo'lgan faoliyatni optimallashtirish, turizm korxonalari resurs salohiyatini samarali rivojlantirish va foydalanish, turizmni rivojlantirishdagi riskni kamaytirish asosida mavjud turistik korxonalarining tashqi muhit bilan aloqadorlikda yuqori natijalarga erishish taklifi asoslandi.

4. Turizm sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari takomillashtirish yo'llari asoslanib, «tourism innovation center» markazi onlayn bazasini yaratish va davlat organlari hamda ular o'rtasida barqaror aloqalarni takomillashtirish orqali turizm iqtisodiy bozorida erkin raqobatbardosh tovar va xizmatlarni tashkil etish, yagona markazlashgan axborot tizmi taklifi asoslandi.

5. Turizm sohasini tartibga solish hamda uni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat chora-tadbirlarining samaradorligini baholash mexanizmlari taklif qilindi. Tahlil natijalaridan turistik subyektlari qo'llab-quvvatlash siyosatida ularning investitsion

faolligini rag'batlantirishga jiddiy e'tibor qaratish lozim degan xulosaga kelindi. Ishda davlatning turizm sohasini tartibga solish, uni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga oid muallifning yondashuvlari, ilmiy taklif va tavsiyalar, fikr-mulohazalari bayon etilgan.

6. Tadqiqot davomida Qashqadaryo viloyatidagi innovatsion turizm faoliyatini baholash maqsadida 102 nafar aholidan so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijalariga ko'ra 85.8 foizi onlayn sayohat haqida tushunchaga ega ekanligi aniqlandi (faqatgina 14.2 foizi esa deyarli bu sayohat turiga qiziqmasligini etirof etgan). Natijada Qashqadaryo viloyati aholisi o'rtasida turizmga bo'lgan qiziqshning yuqori ekanligi, turizmni rivojlanishi va samaradorligini oshirish zarurligi va sohaga yirik investision loyihalarni jalb qilish zarurligi ilmiy asoslanib, voha turizmni yanada rivojlantirish uchun takliflar ishlab chiqilgan.

7. Qashqadaryo viloyatida turizm sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish va voha turizmini rivojlantirish maqsadida Qashqadaryo bo'ylab virtual sayohat dasturi ishlab chiqildi. Dasturda viloyat turizmining yangi qirralari kashf etilib, raqobatbardosh va yuqori samarali faoliyat yuritishning yangi imkoniyatlari ochib berildi. Natijada nafaqat tashriflar soni ortishi, balki virtual sayohat natijasidan ham iqtisodiy o'sish, qo'shimcha daromad olish va turistik marketing targ'ibotni amalga oshirish imkoniyati ko'rsatib berildi.

8. Qashqadaryo mintaqasida 2024–2028-yillarda turizmini rivojlantirish va uning salohiyatining prognozini aniqlashda turizm xizmatlari eksporti, xorijiy va mahalliy tashrifchilar soni, turizm kompaniyalari va ular tomonidan xizmat ko'rsatiluvchi turistlar soni, joylashtirish vositalari soni, turizm industriyasining asosiy kapitaliga investisiyalar hajmi kabi ko'rsatkichlar tanlab olindi.

9. Tadqiqot ishida Qashqadaryo viloyati turistik xizmat ko'rsatish hajmidan olingan daromad dinamikasi 2023 yilda 2017 yilga nisbatan daromad hajmi o'sish tendensiyasiga ega. Unga ta'sir etuvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri tashrif buyurgan turistlarga oqimining yuqoriligidir. Respublikada 90 dan ortiq davlatlarda vizasiz rejimning joriy qilinishi, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash va imtiyozli kreditlar orqali turistik infratuzilmani modernizatsiyalash natijasi sababli 2023 yilning so'nggida Qashqadaryo viloyati turizm xizmatlaridan olinadigan daromad 81215.39 mlrd so'mni tashkil etgan.

10. Tadqiqot ishida Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarning prognoz ko'rsatkichlari va tuzilgan (3.1) va (3.4) shaklidagi chiziqli ko'p omilli ekonometrik modellar yordamida Qashqadaryo viloyatida turizm xizmat ko'rsatish hajmi hamda tashrif buyuruvchilar oqimi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini hisoblab chiqildi. Natijada, 2024-2028 yillargacha bo'lgan pragnoz parametrlari ishlab chiqilgan va turizm xizmat ko'rsatish hajmining keyingi besh yillikda o'rtacha o'sish sur'ati 13,7 foizni tashkil etgani holda, 2028 yilda 2023 yilga nisbatan 1,9 barobarga ortishi ta'minlanib, 2010 bazis yilga nisbatan real qiymatda 153,4433 mlrd so'mga yetishi ilmiy asoslangan.

E'LON QILINGAN ISHLAR RO'YXATI
СПИСОК ЗАЯВЛЕННЫХ РАБОТ
LIST OF PUBLISHED WORKS
I bo'lim. (I част; I part)

1. Jabborova Z. The role and significance of tourism in socio-economic development// Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2024 y. №2/2 (111), 21-26-b. (08.00.00; №21).
2. Jabborova Z. Turizm sohasi rivojlanishida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish // Iqtisodiyot va turizm. – Buxoro, 2024. №39(17), 95-104-b. (08.00.00; 2022 y. 30-aprel 315/5 sonli qarori)
3. Jabborova Z.A. Turizmni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning nazariy va uslubiy asoslari // Servis. – Samarqand, 2023. №5(153), 32-36-b. (08.00.00; №20).
4. Jabborova Z.A. Turizmda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish // Innovatsion texnologiyalar. – Qarshi, 2023. №2(50), 145-150-b. (08.00.00; №30).
5. Jabborova Zukhra. Effective use of the experience of advanced foreign countries in state support for tourism Journal of Management Value & Ethics April special issue. 23 Vol. 13 No.04 SJIF 8.001 & GIF 0.626 ISSN-2249-9512 2023yil. (08.00.00; №6)
6. Jabborova Z.A. Turizm sohasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llari // “Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 8-to'plam 1-son may 2024y. 42-50-b.
7. Jabborova Z. Turizm sohasining mamlakat ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati // “Turizm sohasi milliy iqtisodiyotning muhim drayveri” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari Samarqand 2023 y. 256-260 b
8. Jabborova Z.A. Turizmda innovatsion jarayonlar asosida turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish // “Erkin bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sog'lom raqobat muhitini yaratish orqali hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari Andijon 2023 y. 154-157 b
9. Jabborova Z. Turizm sohasining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni // “Turizm sohasi milliy iqtisodiyotning muhim drayveri” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari Samarqand 2023 y. 175-178 b
10. Jabborova Z.A. Turizmda innovatsion jarayonlar asosida turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish // “Iqtisodiy tadqiqotlarga asoslangan oliy ma'lumotli iqtisodchi kadrlarni tayyorlash:muammolar va innovatsion yechimlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (1 qism) Buxoro 2023 y. 207-210 b
11. Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi. Qashqadaryo viloyati turizmining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi // «Ipak yo'lida til, adabiyot, tarjima, turizm va madaniy

meros sohasi tadqiqida innovasion yondashuvlar» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2 qism) Toshkent 2024 y. 236-240 b

12. Jabborova Z.A. Turizm sogʻasida innovasion texnologiyalar, virtual tizimning ahamiyati // «Uchinchi renessansni shakllantirish sharoitida xizmat koʻrsatish va taʼlim xizmatlari sohasini rivojlantirish muammolari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (3 qism) Samarqand 2022 y. 71-74 b

13. Jabborova Z.A. Innovasion va raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasini rivojlantirish // “Innovasion va raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat koʻrsatish sohasini rivojlantirish muammolari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari Samarqand-Tombov 2020 y. 78-81 b

II boʻlim. (II част; II part)

14. Ergashev R.X., Jabborova Z.A., Turizm sohasi istiqbollari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. –Tom 1. (08.00.00) №5(2024).

15. Jabborova Zuhra. Jabborova Fotima. Tourism is a Strategic Network of Tourism // American journal of economics and business management. Vol. 6, No. 2, 2023

16. Zuhra Jabbarova. Improvement of Economic Mechanisms of State Support of Innovative Activities in Tourism. // International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD). Volume 6 Issue 3, 2023.

17. R.X.Ergashev, Zuhra Jabbarova. The Importance of Digital Technologies and Virtual Systems in the World of Modern Tourism. // International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD). Volume 6 Issue 3, March-April 2022.

18. Zuhra Jabbarova. Fotima Jabborova. The popularity and importance of virtual travel in modern tourism. // “Markaziy Osiyo mintaqasida turizmni rivojlantirish istiqbollari: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari Qarshi 2022 y. 186-191 b

19. R.X.Ergashev, Zuhra Jabbarova. The importance of innovative activity in tourism. // International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD). Vol. 2 No. 4, April 2021.

20. Zuhra Jabbarova. Enabling and disabling factors for innovation in tourism in the context of the innovation and digital economy // “Xizmat koʻrsatish sohasini innovatsion va raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish muammolari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari (2-qism) Samarqand 2021 y. 123-126 b

21. Jabborova Z.A. M.Xamidova. Qashqadaryo viloyati tarixiy qadamjosi Xoʻja Ilm Koni xonaqosining yangi imkoniyatlari // “Mirzo Ulugʻbek-buyuk mutafakkir olim va davlat arbobi” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari Toshkent 2024 y. 162-165 b